## Электрон шартнома маълумотларини бошқариш

## Электрон шартномани шакллантириш

Электрон шартномани шакллантириш тизимнинг **Moliyaviy faoliyat / Shartnoma berish** менюсини танланг (1-расм).




1-расм. Шартномалар рўйхати

**+Belgilash** тугмасини танлаш орқали электрон шартномани яратиш ойнасига ўтинг (2-расм). Шартнома бериш учун қуйидаги амалларни бажаринг:

- **Fakultet** майдонидан  факултетни танланг;
- **Mutaxassislik** майдонидан мутахассисликни танланг;
- **Ta’lim shakli** майдонидан таълим шаклини танланг;
- **O‘quv yili** майдонидан ўқув йилини танланг;
- **Semestr** майдонидан талаба қайси семестрда тахсил олаётган бўлса ўша семестрни танланг;
- **Guruh** майдонидан талабанинг гуруҳини танланг.

Натижада шартнома яратиш ойнаси очилади (2-расм)




2-расм. Талаба шартномасини яратиш

Талаба шартномасини яратишда:

- **Shartnoma turi** устунидан шартнома турини танланг (Bazaviy kontrakt);

– **Shartnoma shakli** устунидан шартнома шаклини танланг (2 tomonlama);
– **Summa turi** устунидан **стипендиясиз** ёки **стипендияли** туридан бирини танланг. Бунда талабанинг хохиш истаги асосида танлаш амалга оширилади.

Барча параметрлар ўрнатилгандан сўнг талабани танланг ва **+Belgilash** тугмасини босинг. Натижада қуйидагича ойна пайдо бўлади (3-расм).




3-расм. Шартномани шакллантириш ойнаси

Талаба шартномасини шакллантириш учун 3-расмда келтирилган ойнадаги талаба қаторида жойлашган **Olish** тугмасини танланг. Натижада талаба шартномасининг рақами ва шартнома суммаси автоматик тарзда шаклланади (4-расм).




4-расм. Талаба шартномасини шакллантириш

Талабанинг шартнома маълумотларини кўриш ёки таҳрирлаш учун талаба шартномасини шакллантириш ойнасидан талабани танланг. Натижада талаба шартномаси маълумотларини таҳрирлаш ойнаси очилади. Ушбу ойнада қуйидагича маълумотлар ўз аксини топган:

– **Shartnoma raqami** майдонида шартнома рақами автоматик тарзда шаклланган. Ушбу майдонни ўзгартиришга рухсат этилмайди **(базавий шартнома турида)**;
– **Sana** майдонида шартнома санаси автоматик тарзда шаклланган. Ушбу майдонни ўзгартиришга рухсат этилмайди;
– **Summa** майдонидаги шартнома суммаси автоматик тарзда шаклланган. Ушбу майдонни ўзгартиришга рухсат этилмайди;

- **Chegirma (%)** майдонига шартнома тўлови бўйича чегирма бўлса киритинг, масалан 10%;
- **Shartnoma turi** майдонида базавий контракт тури мавжуд. Ушбу майдонда шартноманинг бошқа турини танлаш мумкин;
- **Summa turi** майдонида стипендиясиз шартнома тури мавжуд. Ушбу майдонда сумманинг бошқа турини танлаш мумкин;
- **Shartnoma shakli** майдонида 2 томонлама шартнома шакли мавжуд. Ушбу майдонда шартнома шаклининг бошқа турини турини танлаш мумкин;
- **Oylar** майдонида автоматик тарзда 12 ой туради, бу майдоннинг ҳам маълумотини ўзгартириш мумкин;
- **O'quv yili** майдонида шартнома шакллантириладиган ўқув йили кўрсатилган;
- **Kurs** майдонида талабанинг қайси курсда ўқиятганлиги белгиланган.
- **Talaba toifasi –** майдонида икки хил тоифа мавжуд бўлиб, **битирувчи** ёки **битирувчи эмас**. Талаба 4-курс ёки 2-курс магиструтура босқичида таҳсил олаётган бўлса **битирувчи** тури танланади. Қолган курсларнинг барчасида **битирувчи эмас** тури танланади.
- **O'qish muddati** майдонидан ўқишни тугатиш йили танланади;
- **Fakultet** майдонида талабанинг факультети мавжуд, зарур бўлса таҳрирлаш мумкин;
- **Mutaxassislik** майдонида талабанинг мутахассислиги мавжуд зарур бўлса таҳрирлаш мумкин;
- **Guruh** майдонида талабанинг гуруҳи мавжуд. Зарур бўлса таҳрирлаш мумкин.
- **Ta'lim turi** майдонида таълим тури мавжуд. Ушбу майдонни таҳрирлашга рухсат берилмаган;
- **Ta'lim shakli** майдонида таълим шакли маълумоти мавжуд. Ушбу майдонни ўзгартиришга рухсат берилмаган;
- **To'lov** muddati (1 kurs) майдонидан 1 курслар учун тўлов муддати санаси белгиланади. Ушбу майдонни ўзгартиришга рухсат берилган;
- **To'lov** muddati (>2 kurs) майдонидан 2 курсдан юқори бўлган талабалар учун тўлов муддати санаси белгиланади. Ушбу майдонни ўзгартиришга рухсат берилган.

**Pochta manzili** ва **Bank ma'lumotlari** майдонларида маълумотлар ҳам автоматик тарзда шаклланади. Ушбу майдон маълумотларига эътибор бериш зарур. Чунки талаба шартнома суммасини тўлаш вақтида банк маълумотлари ва почта манзили маълумотлари муҳим саналади.




5-расм. Талаба шартномасини маълумотларни

Барча маълумотлар тўғрилигига тўлиқ ишонч ҳосил қилингач **Saqlash** тугмасини танланг. Натижада қуйидагича ойна пайдо бўлади (6-расм).




6-расм. Талаба шартномасини шакллантириш

Талаба шартномасини шакллантириш учун **Olish** тугмасини танланг. Натижада ойнада **Ko'rish** тугмаси пайдо бўлади (7-расм).




7-расм. Талаба шартномасини шакллантириш

Талаба шартномаси матнини кўриш учун учун 7-расмда келтирилган талаба шартномасини шакллантириш ойнасидан **Ko'rish** тугмасини танланг. Натижада талаба шартномасининг матнини кўриш ойнаси очилади (8-расм).




8-расм. Шартнома матнини кўриш

Шартноманинг барча маълумотлари тўғрилигига ишонч ҳосил қилингандан сўнг **PDF yaratish** тугмасини танланг. Натижада шартноманинг **PDF** шакли яратилади ва шартномани **Yuklash** тугмаси пайдо бўлади (9-расм).




9-расм. Шартномани юклаш ойнаси.

**Yuklash** тугмасини танлаш орқали шартнома юкланади. Шу билан бир қаторда яратилган шартнома талаба профилида ҳам кўринади.

**Муҳим!** Агар шартнома суммалари ҳисоб китоб қилингандан сўнг **бухгалтерия ролида** ушбу шартномани таҳрирлаб бўлмайди. Бунинг учун алоҳида **молия назорат** роли ташкил этилган. Шартномани таҳрирлаш учун **молия назорат** ролидан шартномани тасдиқлаш тугмасини бекор қилиш керак